Abstract. This article analyzes the current state of competitiveness of small businesses and private entrepreneurship entities in Uzbekistan, as well as the theoretical and practical aspects of their further development. The study examines the achievements in the sector alongside issues related to expanding access to financial resources, adopting modern technologies, developing logistics capabilities, and strengthening human resource potential. Furthermore, scientific and practical proposals and recommendations have been developed to enhance the competitiveness of small business enterprises in foreign markets, stimulate innovation, and improve state support mechanisms.

Keywords: small business, private entrepreneurship, competitiveness, innovation, financial resources, export potential, cooperation.

KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotining globallashuvi, texnologik transformatsiyalarning jadallashuvi hamda jahon bozorlaridagi raqobat muhitining kuchayishi har qanday davlatdan milliy iqtisodiyotning muhim tayanchi bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining barqaror rivojlanishini ta'minlashni talab etmoqda.



Istalgan mamlakat iqtisodiyoti taraqqiyotining barqarorligi ko'p jihatdan raqobatbardosh xususiy sektorning mavjudligi, uning o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashuvchanligi hamda innovatsion salohiyati bilan belgilanadi.

O'zbekistonda ham bozor munosabatlarini yanada chuqurlashtirish, xususiy sektorga keng imkoniyat va erkinliklar yaratish hamda uning mamlakat yalpi ichki mahsulotini shakllantirishdagi ishtirokini kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida¹ tadbirkorlik subyektlarining huquqiy himoyasini kuchaytirish, ular uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish hamda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiluvchi institutsional zaminni mustahkamlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur hujjat sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim huquqiy poydevori bo'lib, xususiy sektorning barqaror rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlarni shakllantirmoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy bozor talablari kichik biznes korxonalaridan nafaqat ichki bozorni zarur mahsulot va xizmatlar bilan ta'minlashni, balki tashqi bozorlarda ham munosib o'rin egallashni, mahsulot va xizmatlar sifatini muntazam ravishda oshirib borishni ham talab qilmoqda. Hozirgi sharoitda ichki va tashqi bozorlardagi o'zgarishlar, xomashyo va logistika zanjirlarini takomillashtirish zarurati, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda kadrlar salohiyatini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish masalalari kichik biznes korxonalarining raqobatbardoshligini yanada oshirishning muhim yo'nalishlari sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois, kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshlik darajasini oshirish, ularning zamonaviy texnologiyalar va raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash hamda eksport salohiyatini yuksaltirish bugungi kunning muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolada O'zbekistonda kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshlik darajasining bugungi holati har tomonlama tahlil qilinib, uni yanada rivojlantirish imkoniyatlari va ustuvor yo'nalishlari aniqlanadi. Shuningdek, kichik biznes subyektlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, innovatsion faollikni kuchaytirish va eksport salohiyatini yuksaltirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini ta'minlash, ularni innovatsion rivojlantirish hamda milliy iqtisodiyotdagi o'rnini mustahkamlash masalalari mamlakatimiz va xorijlik olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan. Mazkur yo'nalishdagi nazariy va uslubiy yondashuvlarni o'rganish tadqiqotning ilmiy asoslarini shakllantirish va maqolaning metodologik poydevorini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijlik olimlardan M. Porterning raqobatbardoshlik nazariyasiga ko'ra, korxonalarning raqobatbardoshligi nafaqat mavjud resurslardan samarali foydalanish, balki innovatsiyalarni joriy etish, mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash hamda klaster tizimlarini shakllantirish salohiyati bilan ham belgilanadi. Shuningdek, J. Schumpeter tadqiqotlarida tadbirkorlik va innovatsiya jarayonlari iqtisodiy o'sishning muhim harakatlantiruvchi kuchi sifatida e'tirof etilgan bo'lib, kichik biznesning moslashuvchanligi va yangiliklarni tez o'zlashtirish qobiliyati ushbu jarayonda muhim ustunlik sifatida ta'kidlanadi.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borganlar. Xususan, respublikamizda bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, soliq siyosatini takomillashtirish va ularning eksport salohiyatini yuksaltirish mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqotlarda kichik biznesning hududiy xususiyatlari, uning bandlikni ta'minlashdagi o'rnini hamda xususiy sektor va yirik korxonalar o'rtasidagi kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish imkoniyatlari keng tahlil qilingan.

Shu bilan birga, so'nggi yillarda qabul qilingan davlat dasturlari va me'yoriy-huquqiy hujjatlarda tadbirkorlik muhitini yanada rivojlantirish, kichik biznes subyektlarini raqamlashtirish hamda ularning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan davlat siyosatining asosiy tamoyillari belgilab berilgan. Mazkur chora-tadbirlar kichik biznes subyektlarining zamonaviy bozor sharoitlariga moslashuvchanligini kuchaytirish, innovatsion faolligini rag'batlantirish va iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish uchun muhim imkoniyatlar yaratmoqda.

O'rganilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznes korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish masalalari nazariy jihatdan keng tadqiq etilgan. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida mazkur nazariy yondashuvlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish, xususan, logistika imkoniyatlarini

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>



kengaytirish, innovatsion faoliyatni faollashtirish hamda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish mexanizmlarini yanada takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur jihatlar tadqiqotning keyingi bosqichlarida kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy maqolada O'zbekistonda kichik biznes korxonalari raqobatbardoshligining bugungi holatini har tomonlama o'rganish va tahlil qilish maqsadida zamonaviy ilmiy yondashuvlar hamda tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonining obyektivligi, ishonchliligi va olingan natijalarning ilmiy asoslanganligini ta'minlash maqsadida quyidagi uslubiy yondashuv va tamoyillar qo'llanildi:

Tizimli yondashuv: Kichik biznes subyektlari faoliyati va ularning raqobatbardoshligi yagona iqtisodiy tizim sifatida, makroiqtisodiy muhit, moliyaviy resurslar, innovatsiyalar va tashqi bozor omillari bilan o'zaro uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqildi. Mazkur yondashuv kichik biznes raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillarning o'zaro bog'liqligini kompleks baholash imkonini berdi.

Qiyosiy tahlil (Comparative analysis): Xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda O'zbekistonda xususiy sektor rivojlanishining asosiy tendensiyalari qiyosiy jihatdan o'rganildi. Ushbu usul orqali turli mamlakatlardagi yondashuvlarning o'xshash va farqli jihatlari aniqlanib, ularning O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari baholandi.

Statistik va iqtisodiy tahlil: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi hamda boshqa rasmiy manbalarning statistik ma'lumotlari asosida kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, bandlik va eksport hajmidagi o'zgarishlar dinamik jihatdan tahlil qilindi. Mazkur usul kichik biznes rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlarini obyektiv baholash imkonini berdi.

Induksiya va deduksiya usullari: Mavjud nazariy qarashlar va umumiy iqtisodiy qonuniyatlardan kelib chiqqan holda kichik biznes korxonalarining raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillar o'rganildi hamda ular mantiqiy ketma-ketlik asosida umumlashtirildi. Ushbu usullar orqali umumiy nazariy xulosalardan amaliy jihatlariga va alohida omillardan umumiy xulosalarga o'tish imkoniyati ta'minlandi.

Mazkur uslubiy yondashuvlarning kompleks ravishda qo'llanilishi kichik biznes korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlarini chuqurroq baholash, rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash hamda ularning iqtisodiy samaradorligi va tashqi bozorlardagi faolligini yuksaltirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatining bugungi holati hamda ularning raqobatbardoshlik darajasi o'tkazilgan statistik va amaliy tahlillar asosida baholanganda, mazkur sektor mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim drayverlaridan biri ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, so'nggi yillardagi rasmiy ko'rsatkichlarga tayanadigan bo'lsak, kichik tadbirkorlik subyektlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 50 foizdan oshib, bandlik va xizmat ko'rsatish sohalarida muhim o'rin tutmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, kichik biznes korxonalari raqobatbardoshligiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar faoliyat ko'lamining kengayishi, bozor imkoniyatlaridan samarali foydalanish va zamonaviy biznes yondashuvlarining joriy etilishi bilan tavsiflanadi. Xizmat ko'rsatish, savdo va kichik ishlab chiqarish tarmoqlarida xususiy sektor ulushining yildan-yilga ortib borishi bozor infratuzilmasining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, raqamlashtirish sur'atlarining oshishi natijasida ko'plab kichik korxonalar o'z faoliyatida elektron tijorat, onlayn hisob-kitob va raqamli marketing vositalaridan faol foydalanmoqda. Davlat tomonidan yaratilayotgan huquqiy kafolatlar, imtiyozlar va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari esa tadbirkorlarning biznes faoliyatini kengaytirish va yangi loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini oshirmoqda.

Shu bilan birga, tahlil jarayonida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini yanada oshirishni talab etuvchi ayrim yo'nalishlar ham aniqlandi. Xususan, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tijorat banklari tomonidan taqdim etilayotgan kreditlarning foiz stavkalari hamda garov ta'minotiga qo'yiladigan talablar ayrim tadbirkorlik subyektlari uchun moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishni taqozo etmoqda. Shu sababli, kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash instrumentlarini diversifikatsiya qilish, imtiyozli moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish va zamonaviy moliyaviy xizmatlardan foydalanishni rivojlantirish raqobatbardoshlikni oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi (1-jadval).



1-jadval

O'zbekistonda kichik biznes korxonalari raqobatbardoshligining
asosiy ko'rsatkichlari va rivojlantirish omillari tahlili²

T/r	Tahlil yo'nalishlari	Asosiy holat va ko'rsatkichlar	Raqobatbardoshlikka ta'siri (ijobiy / salbiy)	Asosiy rivojlantirish yo'nalishlari
1	Iqtisodiy ishtirok va ulush	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YIMdagi ulushi 50 % dan yuqori bo'lib, bandlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi.	Ijoiy	Sifat ko'rsatkichlarini miqdoriy o'sish bilan uyg'unlashtirish va qo'shilgan qiymat zanjiridagi ishtirokni kengaytirish.
2	Moliyaviy ta'minot va resurslar	Imtiyozli kreditlar ajratilayotgan bo'lsa-da, aylanma mablag'lardan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarur.	Rivojlantirish imkoniyati	Kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va garov ta'minotining muqobil shakllarini rivojlantirish.
3	Texnologiya va innovatsiyalar	Raqamli vositalar, jumladan, elektron tijorat va onlayn hisob-kitob tizimlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.	Ijoiy rivojlanish	Zamonaviy ishlab chiqarish uskunalarini joriy etish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'lamini kengaytirish.
4	Tashqi bozor va eksport	Eksport qiluvchi kichik korxonalar soni ortib bormoqda. Xalqaro talablarga moslashish va eksport geografiasini kengaytirish imkoniyatlari mavjud.	Ijoiy rivojlanish	Xalqaro sifat standartlari (ISO va boshqalar) bo'yicha sertifikatlash imkoniyatlarini kengaytirish hamda logistika jarayonlari samaradorligini oshirish.
5	Kadrlar va boshqaruv salohiyati	Zamonaviy biznes boshqaruvi va marketing yo'nalishlariga qiziqish ortib bormoqda.	Ijoiy rivojlanish	Xalqaro standartlar asosida faoliyat yurituvchi menejerlar va tor ixtisoslashgan texnik mutaxassislar tayyorlash, malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish.

Moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish orqali kichik korxonalarning texnologik bazasini modernizatsiya qilish, zamonaviy uskunalarni joriy etish va innovatsion faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlari yanada ortadi. Bu esa mahsulot tannarxini optimallashtirish, sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash va korxonalarning raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, eksport qiluvchi kichik korxonalar uchun xalqaro standartlashtirish va sertifikatlash jarayonlarini soddalashtirish, shuningdek, logistika xizmatlaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish tashqi bozorlardagi raqobat salohiyatini oshirishning muhim yo'nalishlari hisoblanadi.

O'tkazilgan tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes korxonalari sonining jadal o'sishi bilan bir qatorda, ularning sifat jihatidan raqobatbardoshligini yanada mustahkamlash, mahsulotlarning qo'shilgan qiymat zanjiridagi ishtirokini kengaytirish va eksportbopligini oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjud. Bu holat davlat va xususiy sektor hamkorligida zamonaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish hamda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy salohiyatini yanada yuksaltirish muhimligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar va ko'rsatkichlar asosida kichik biznes korxonalari raqobatbardoshligining bugungi holati bo'yicha quyidagi tahliliy xulosalarni shakllantirish mumkin.

Jadvalning birinchi yo'nalishi shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat yalpi ichki mahsulotining yarmidan ko'pini shakllantirib, iqtisodiyotning muhim drayverlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu holat sektorning bandlikni ta'minlash va ichki bozorni mahsulot hamda xizmatlar bilan ta'minlashdagi yuqori ahamiyatini ko'rsatadi. Shu bilan birga, sifat ko'rsatkichlarini miqdoriy o'sish bilan uyg'unlashtirish va qo'shilgan qiymat zanjiridagi ishtirokni kengaytirish korxonalarning uzoq muddatli barqarorligi va raqobatbardoshligini yanada mustahkamlash imkonini beradi.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari hamda muallif tahlillari asosida tuzildi.



Moliyaviy ta'minot va resurslar yo'nalishida kichik biznes subyektlarining moliyaviy imkoniyatlarini yanada kengaytirish muhim ahamiyat kasbetmoqda. Davlat tomonidan imtiyozli kreditlar ajratilayotganligi bilan bir qatorda, tijorat banklari kreditlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, kredit foiz stavkalarini maqbullashtirish va garov ta'minotining muqobil shakllarini rivojlantirish tadbirkorlarning aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini samarali qondirishga xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishlarning takomillashtirilishi kichik korxonalarining faoliyat ko'lamini kengaytirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Texnologiya va innovatsiyalar sohasidagi tahlil shuni ko'rsatadiki, elektron tijorat va onlayn hisob-kitob kabi raqamli vositalarning bosqichma-bosqich joriy etilayotgani ijobiy tendensiyadir. Kelgusida zamonaviy ishlab chiqarish uskunalari joriy etish, texnologik modernizatsiyani jadallashtirish va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash orqali mahsulot tannarxi va sifat ko'rsatkichlarini yanada optimallashtirish mumkin. Shu jihatdan, raqamlashtirish va innovatsiyalar kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Tashqi bozor va eksport yo'nalishi bo'yicha eksport qiluvchi kichik korxonalar sonining ortib borayotgani ijobiy tendensiya sifatida baholanadi. Kelgusida ularning umumiy eksport hajmidagi ulushini yanada oshirish uchun xalqaro sifat standartlari (ISO va boshqalar)ni joriy etish, sertifikatlash jarayonlaridan foydalanishni yengillashtirish va logistika xizmatlari samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Mazkur chora-tadbirlar kichik biznes subyektlarining tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish va xalqaro raqobat salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kadrlar va boshqaruv salohiyati bo'yicha tadbirkorlarning zamonaviy biznes boshqaruvi va marketing yo'nalishlariga bo'lgan qiziqishi ortib borayotgani ijobiy tendensiyaning anglatadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlar asosida faoliyat yurituvchi malakali menejerlar va tor ixtisoslashgan texnik mutaxassislar salohiyatini rivojlantirish, malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimini kengaytirish boshqaruv jarayonlari hamda ishlab chiqarish samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi.

Umuman olganda, jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda kichik biznes subyektlari soni va ularning iqtisodiyotdagi miqdoriy ulushi yuqori darajada shakllangan. Endilikda ularning sifat jihatidan raqobatbardoshligini yanada mustahkamlash, moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, texnologik bazasini modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish va kadrlar salohiyatini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlar sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur yo'nalishlarda davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish hamda zamonaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish kichik biznesning barqaror rivojlanishi va milliy iqtisodiyotdagi rolini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi (2-jadval).

2-jadval

O'zbekistonda kichik biznes subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yillar kesimida)³

T/r	Asosiy ko'rsatkichlar	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil	2026-yil (joriy davr)
1	Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni (ming birlik)	417,1	435,2	458,0	482,4	507,1
2	Kichik tadbirkorlikning YalMdagi ulushi (%)	52,5	53,4	54,3	52,1	50,5
3	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (%)	30,2	31,1	32,4	33,2	33,8
4	Investitsiyalardagi ulushi (%)	48,6	50,2	51,8	52,6	53,1
5	Bozor xizmatlari hajmida kichik biznesning ulushi (%)	51,0	53,2	55,0	55,5	56,2

Keltirilgan 2-jadval ma'lumotlari O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining so'nggi yillardagi iqtisodiy faolligi, ularning miqdoriy o'sishi hamda mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridagi o'rnini dinamik tarzda baholash imkonini beradi.

Birinchi navbatda, faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. 2022-yildagi 417,1 ming birlikdan boshlangan ushbu ko'rsatkich izchil ravishda oshib borib, joriy davrga kelib 507,1 ming birlikni tashkil etgan. Bu holat mamlakatda tadbirkorlik muhitini yanada rivojlantirish, ro'yxatdan o'tkazish jarayonlarini soddalashtirish va xususiy sektorga keng imkoniyatlar yaratish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning amaliy natijalarini ko'rsatadi. Kichik tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi tahlil qilinganda, mazkur ko'rsatkich yillar davomida 50 foizdan yuqori darajada barqaror saqlanib qolayotgani namoyon bo'ladi. 2022–2024-yillarda mazkur ulush bosqichma-bosqich oshib, 54,3 foizga

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (Milliy statistika qo'mitasi)ning rasmiy yillik ma'lumotlari va joriy y statistik hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



yetgan bo'lsa, keyingi davrda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari, xususan, yirik sanoat va xususiy investitsiyalar hajmining o'sishi fonida ushbu ko'rsatkich 50,5 foizni tashkil etgan. Bu holat kichik biznesning mutlaq iqtisodiy hajmi ortib borayotganini, shu bilan birga, yirik sanoat va korporativ sektorning iqtisodiyotdagi ishtiroki ham kengayayotganini anglatadi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulush ko'rsatkichi ijobiy o'sish dinamikasiga ega bo'lib, 2022-yildagi 30,2 foizdan joriy davrda 33,8 foizgacha oshgan. Kichik biznesning sanoatdagi ishtirokining kengayishi mamlakatimizda qo'shilgan qiymat zanjirlarini rivojlantirish, import o'rnini bosuvchi hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarning muhim natijalaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Investitsiyalardagi ulush dinamikasi ham xususiy sektorning iqtisodiyot rivojiga faol hissa qo'shayotganini ko'rsatadi. 2022-yildagi 48,6 foizdan joriy davrdagi 53,1 foizgacha o'sish kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va asosiy kapitalga yo'naltirilayotgan investitsiyalar ko'lamining kengayayotganidan dalolat beradi.

Bozor xizmatlari hajmida kichik biznesning ulushi ham barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, 51,0 foizdan 56,2 foizgacha oshgan. Xizmat ko'rsatish va servis sohasi kichik biznes uchun yuqori rivojlanish salohiyatiga ega yo'nalishlardan biri ekanligi, shuningdek, mazkur sektorning aholi bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinlarini yaratishdagi muhim o'rni ushbu ko'rsatkichlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, 2-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlari soni va ularning tarmoqlar bo'yicha iqtisodiy ulushi yildan-yilga kengayib, mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shmoqda. Ayniqsa, sanoat, investitsiya va bozor xizmatlari yo'nalishlaridagi ijobiy dinamikalar kichik biznesning iqtisodiy salohiyati va raqobatbardoshligini yanada oshirish uchun keng imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini tahlil qilish asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, mazkur sektor mamlakatimiz iqtisodiy o'sishini ta'minlash, aholi bandligini oshirish va ichki bozorni iste'mol tovarlari hamda xizmatlar bilan ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Globallashuv va zamonaviy raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi kichik biznes korxonalaridan nafaqat miqdoriy o'sishni, balki sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishni, innovatsion salohiyatni rivojlantirish va tashqi bozorlardagi ishtirokini kengaytirishni talab etmoqda. O'tkazilgan tahlillar kichik biznesning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, texnologik bazasini modernizatsiya qilish va logistika samaradorligini oshirish raqobatbardoshlikni yanada mustahkamlashning muhim yo'nalishlari ekanligini ko'rsatdi.

Yuqoridagixulosalardan kelib chiqqan holda, O'zbekistondakichikbizneskorxonalariningraqobatbardoshligini yanada oshirish uchun kichik biznes subyektlari uchun imtiyozli moliyalashtirish mexanizmlarini yanada rivojlantirish, tijorat banklari kreditlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda garov ta'minotining muqobil shakllarini joriy etish orqali ularning aylanma mablag'lar bilan ta'minlanish darajasini oshirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, korxonalarning ishlab chiqarish bazasini yangilash va innovatsion faoliyatini rag'batlantirish maqsadida zamonaviy asbob-uskunalarini lizing asosida xarid qilish imkoniyatlarini kengaytirish, davlat subsidiyalari va soliq imtiyozlaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish lozim. Kichik biznes subyektlarining xalqaro bozorlarga chiqishini qo'llab-quvvatlash maqsadida xalqaro sifat standartlarini joriy etish imkoniyatlarini kengaytirish, sertifikatlash jarayonlarini optimallashtirish hamda eksport logistikasini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish zarur. Tadbirkorlar va ularning xodimlari uchun zamonaviy biznes boshqaruvi, raqamli marketing, elektron tijorat hamda tor ixtisoslashgan texnik ko'nikmalar bo'yicha bepul yoki imtiyozli o'quv kurslarini tashkil etish orqali inson kapitalining sifatini oshirish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, yirik sanoat korxonalari va kichik biznes subyektlari o'rtasidagi kooperatsiya hamda klaster aloqalarini yanada kengaytirish orqali milliy qo'shilgan qiymat zanjirlaridagi ishtirokni kuchaytirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning imkoniyatlarini kengaytirish va ichki hamda tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlash lozim. Umuman olganda, mazkur takliflarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kichik biznes subyektlarining moliyaviy va texnologik imkoniyatlarini kengaytirish, innovatsion faolligini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish hamda eksport salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi rolini yanada kuchaytirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun mustahkam zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.01.2022-y., 06/22/60/0034-son. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>



2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentyabrdagi "Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-306-son qarori. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.09.2023-y., 07/23/306/0675-son. – B. 1–15. <https://www.lex.uz/uz/docs/-6609110>
3. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018. – B. 256–264.
4. Porter M. Konkurentsia. – Moskva: Izdatelskiy dom "Vilyams", 2005. – B. 45–62.
5. Schumpeter Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya. – Moskva: Eksmo, 2008. – B. 112–128.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli (2024–2025-yillar uchun statistik to'plam). – Toshkent, 2025. – B. 84–95.
7. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning raqobatbardoshligini oshirish yo'llari: tahliliy sharh. – Toshkent, 2024. – B. 14–30.
8. Vahobov A. V., Toshxo'jayev M. M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: o'quv qo'llanma. – Toshkent: "Moliya" nashriyoti, 2020. – B. 145–160.
9. Shernaev A. A. General methodological bases of tax planning in enterprises // International Journal of Economics, Commerce and Management. – United Kingdom, 2020. – Vol. 8, No. 4. – P. 357.
10. Shernaev A. A. Principles and methods of organization of the internal tax control system in joint stock company // International Journal of Economics, Business and Management Studies. – 2021. – ISSN 2347-4378.
11. Shernayev A. A. O'zbekistonda davlat tashqi qarzini samarali boshqarish // Science and Education. – 2023. – Vol. 4, No. 6. – P. 860–867.
12. Shernayev A. A. Aksiyaadorlik jamiyatlarida soliqlarni rejalashtirishga tizimli yondashuvni shakllantirishning nazariy asoslari // Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. – 2024. – Vol. 4, No. 10. – P. 274–281.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>